PEDAGOGIK JARAYONDA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING UMUMMADANIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Usmonova Mohichexra Anvarjon qizi
mohichehrausmonova18@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik jarayonda o‘quvchilarning umummadaniy kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari klassik va zamonaviy pedagogik nazariyalar hamda sinergetik yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Pedagogik jarayon ochiq va o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizim sifatida talqin etilib, kompetensiyani shakllantirishning nazariy modeli va tamoyillari asoslangan.

Kalit so‘zlar: pedagogik jarayon, umummadaniy kompetensiya, ilmiy-nazariy asoslar, pedagogik nazariya, sinergetik yondashuv, ochiq pedagogik tizim, tamoyillar.

Zamonaviy ta’lim tizimida yosh avlodni intellektual rivojlantirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanmoqda. Globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va raqamli transformatsiya sharoitida o‘quvchi har kuni turli madaniy ta’sirlar bilan to‘qnashadi, shu bois uning madaniy yo‘nalishini belgilab beruvchi shaxsiy sifatlarni shakllantirish pedagogika oldidagi dolzarb masalaga aylanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasida davlat va jamiyat bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik va Vatanga mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishga g‘amxo‘rlik qilishi belgilangan.”Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ham ta’lim va tarbiyaning uzviyligi, shaxsni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

Pedagogika nazariyasida tarbiya shaxsni jamiyat madaniyatiga kiritish, uning qadriyatlarini ongli o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan maqsadli jarayon sifatida talqin qilinadi. Ta’lim va tarbiya esa yagona pedagogik jarayonning o‘zaro bog‘liq tomonlari bo‘lib, uning yaxlitligi pedagogika nazariyasining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Umummadaniy kompetensiya o‘quvchining madaniyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy meros, axloqiy me’yorlar hamda ijtimoiy munosabatlarga oid bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Biroq mazkur kompetensiya faqat bilimlarni o‘zlashtirish orqali shakllanmaydi. O‘quvchi egallagan bilimlarini muloqot, hamkorlik, muammoli vaziyatlarni hal etish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faoliyat jarayonida qo‘llaganidagina ular shaxsiy tajribaga aylanadi. Shu sababli umummadaniy kompetensiyani shakllantirishda ta’lim va tarbiyaning uzviyligi, o‘quvchining faol subyekt sifatidagi ishtiroki hamda pedagogik muhitning imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonni tashkil etishda sinergetik yondashuv pedagogik jarayonning yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiluvchi metodologik imkoniyatlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Sinergetik qarashlarga ko‘ra, rivojlanish turli omillarning o‘zaro ta’siri va tizimning ichki imkoniyatlari bilan bog‘liq holda yuz beradi. Pedagogik jarayonda ham o‘quvchining rivojlanishi faqat o‘qituvchi ta’siriga emas, balki uning shaxsiy tajribasi, qiziqishi, tengdoshlari bilan munosabati, oilaviy va ijtimoiy-madaniy muhiti hamda mustaqil faoliyatiga bog‘liq. Shu sababli umummadaniy kompetensiyani shakllantirishda o‘quvchining ichki faolligini qo‘llab-quvvatlaydigan va turli ta’limiy imkoniyatlarni birlashtiradigan pedagogik muhitni yaratish zarur. Bu borada H. Haken tomonidan asoslangan o‘z-o‘zini tashkil etish g‘oyasi hamda E.N. Knyazeva va S.P. Kurdyumovning murakkab tizimlarning rivojlanishi, nochiziqlilik va o‘z-o‘zini tashkil etish haqidagi ilmiy qarashlari pedagogik jarayonni tushunishda metodologik ahamiyatga ega. Ularning qarashlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etganda, o‘quvchining bilim, qadriyat va faoliyat tajribasi o‘zaro

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bog‘lanib, yangi shaxsiy sifatlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Demak, umummadaniy kompetensiya pedagogik ta’sirning tayyor natijasi emas, balki o‘quvchining faol ishtiroki va turli ta’limiy tajribalarining integratsiyasi natijasida shakllanadigan sifat sifatida qaraladi.

Masalan, tarix, ona tili, adabiyot yoki tarbiya fanlari mashg‘ulotlarida milliy qadriyatlar bilan bog‘liq mavzularni o‘rganishda o‘quvchilarga tayyor xulosalarni berish o‘rniga muammoli vaziyatlar yaratish, turli manbalarni tahlil qilish, guruhda fikr almashish va o‘z nuqtayi nazarini asoslash imkoniyatini berish mumkin. “Milliy qadriyatlar zamonaviy jamiyatda qanday namoyon bo‘ladi?”, “Turli madaniyat vakillarining qadriyatlarini qanday hurmat qilish mumkin?” kabi savollar o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Bunday faoliyat davomida o‘quvchi nafaqat tegishli bilimlarni egallaydi, balki muloqot qilish, boshqa fikrlarni tinglash, qadriyatlarni baholash va o‘z xulosasini asoslash tajribasini ham egallaydi. Natijada bilim, munosabat va faoliyatning o‘zaro birligi asosida umummadaniy kompetensiyaning rivojlanishi ta’minlanadi.Shunday qilib, pedagogik jarayonda sinergetik yondashuvdan foydalanish umummadaniy kompetensiyani shakllantirishning mazmuni va mexanizmlarini o‘zaro bog‘lash imkonini beradi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchiga tayyor bilim va qadriyatlarni singdiruvchi emas, balki uning mustaqil izlanishi, muloqoti, hamkorligi va refleksiyasi uchun sharoit yaratuvchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi. O‘quvchining turli faoliyatlarda ishtiroki natijasida bilim, qadriyat, munosabat va amaliy tajriba bir butun tizimga birlashadi. Shu jihatdan sinergetik yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon o‘quvchilarning umummadaniy kompetensiyasini shakllantirish uchun yaxlit, dinamik va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limiy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik jarayonda o‘quvchilarning umummadaniy kompetensiyasini shakllantirish ta’lim va tarbiyaning mazmuniy, faoliyatli hamda shaxsiy jihatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishni talab etadi. Ushbu jarayonda sinergetik yondashuv o‘quvchining mustaqil faolligi, o‘z-o‘zini rivojlantirishi, hamkorlikdagi faoliyati va pedagogik muhit bilan o‘zaro ta’sirini ta’minlash orqali kompetensiyaning izchil shakllanishiga metodologik asos yaratadi. Demak, sinergetik yondashuv asosida tashkil etilgan 368edagogic jarayon o‘quvchini ta’limning passiv ishtirokchisidan faol subyektiga aylantirib, uning bilim, qadriyat, muloqot va faoliyat tajribalarini yagona tizimda rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning umummadaniy kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.30.04.2023. https://lex.uz/docs/6445145
2. Ibragimova Sh.O. Sinergetik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari // Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: nazariy va amaliy izlanishlar. – 2023. – 2-jild, 6-son. – B. 5–8.
3. Hasanboyev J., To‘raqulov X.A., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika. – Toshkent: Noshir, 2011. – 456 b.
4. Kurbanova F. Umummadaniy kompetensiya ta’limning ajralmas qismi sifatida // Ta’lim, fan va innovatsiya. – 20
5. Olimova D.N. Pedagogik ta’lim jarayonida umummadaniy kompetentlikning mazmuni va tarkibiy komponentlari // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2026.
DOI: 10.5281/zenodo. 20686511.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.